riga ajratib, ular orasida hiperonimiya, hiponimiya, meronimiya kabi munosabatlarni koʻrsatadi; bu munosabatlar maʼno farqlarini tarmoq strukturasida koʻrishga imkon beradi.[1] Metafora tarjimasida WordNet ikki tomondan foyda beradi: birinchi tomondan, metaforik birlikning "asosiy maʼnosi"ni aniqlashda leksik iyerarxiya yordam beradi, ikkinchi tomondan, tarjima variantlarining semantik yaqinligini taxminiy baholashga xizmat qiladi. Biroq WordNet, asosan, ingliz tili uchun yuqori qamrovga ega; oʻzbek tilida shunga teng resurslar har doim ham tayyor boʻlmaydi. Shu holatda BabelNet kabi koʻp tilli semantik tarmoqlar WordNet va ensiklopedik bilimni integratsiya qilib, koʻp tilga yoyilgan konsept identifikatorlarini taklif etadi[2]. Bundan tashqari, ConceptNet kabi umumiy bilim graflari soʻz va iboralarni belgilangan munosabatlar orqali bogʻlab, taqsimot semantikasi bilan birga ishlatilganda koʻplab semantik vazifalarda foyda berishi koʻrsatilgan.[3]

Xulosa. Taqsimot semantikasi semantik tarmoq va leksik resurslardan farqli ravishda maʼnoni statistik qoʻshnilik va kontekst taqsimoti orqali oʻlchaydi. Harris taqsimot strukturasi gʻoyasini ilgari surib, til birliklarining muhitlari tizimli ekanini koʻrsatadi; keyingi anʼanada "soʻzni u bilan birga keladigan soʻzlar orqali bilish" prinsipi taqsimot semantikasining poydevori sifatida qaraladi.[4] Landauer va Dumais latent se-mantik tahlil orqali katta matn korpusidan yashirin oʻlchamlar chiqarib, semantik yaqinlikni vector fazoda ifodalash mumkinligini koʻrsatadi; bu yondashuv keyingi embedding modellariga yoʻl ochgan.[5] Mikolov esa katta maʼlumotlarda soʻz vektorlarini samarali oʻrganish usullarini taqdim etib, analogiya va oʻxshash-lik vazifalarida kuchli natijalarni koʻrsatadi.[6] Metafora tarjimasida taqsimot semantikasi ayniqsa shunday holatlarda foydali boʻladiki, manba va nishon tilida metafora bir xil domen xaritasiga tayansa ham, leksik realizatsiya turlicha boʻladi; vektor yaqinlik tarjimon tanlagan variantning umumiy semantik "muhit"ga mosligini tekshirishga yordam beradi. Biroq taqsimot semantikasi, koʻpincha, tushunutirolmaslik muam-mosiga duch keladi, shu sabab bobda u bilim graflari va freym tarmoqlari bilan birlashtirilgan koʻrinishda taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Navigli R., Ponzetto S.P. BabelNet: The Automatic Construction, Evaluation and Application of a Wide Coverage Multilingual Semantic Network. Artificial Intelligence. 2012, vol. 193, p. 217–250.

(2). Speer R., Havasi C. Representing General Relational Knowledge in ConceptNet 5. Proceedings of the Eighth International Conference on Language Resources and Evaluation. Istanbul, European Language Resources Association, 2012, p. 3679–3686.

(3). Harris Z.S. Distributional Structure. Word. 1998, vol. 10, № 2–3, p. 146–162.

(4). Landauer T.K., Dumais S.T. A Solution to Plato's Problem: The Latent Semantic Analysis Theory of Acquisition, Induction, and Representation of Knowledge. Psychological Review. 1997, vol. 104, № 2, p. 211–240.

(5). Mikolov T., Yih W.T., Zweig G. Linguistic Regularities in Continuous Space Word Representation. Proceedings of the 2013 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies. Atlanta, Association for Computational Linguistics, 2013, p. 746–751.

Nusratilloyeva Dilnoza (f.f.f.d., Navoiy davlat universiteti; E-mail: nusratilloyevadilnoza2@gmail.com)

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA TABIATNI ASRASH VA EKOLOGIYA MUAMMOLARINING POETIK TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada Matnazar Abdulhakim she'riyatida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini tahlil qilingan. Shoir asarlaridagi ekologik muammolar, atrof-muhit musaffoligini saqlash, va tabiatga bo'lgan mas'uliyatning falsafiy-poetik asoslari yoritilgan. Maqolada badiiy san'atlar va ramziy obrazlar orqali ekologik inqirozning ma'naviy-axloqiy yechimlari ochib beriladi.*

---

[1] Fellbaum C., ed. WordNet: An Electronic Lexical Database. Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1998, 423 p.

[2] Navigli R., Ponzetto S.P. BabelNet: The Automatic Construction, Evaluation and Application of a Wide Coverage Multilingual Semantic Network // Artificial Intelligence. 2012, vol. 193, p. 217–250.

[3] Speer R., Havasi C. Representing General Relational Knowledge in ConceptNet 5. Proceedings of the Eighth International Conference on Language Resources and Evaluation. Istanbul, European Language Resources Association, 2012, p. 3679–3686.

[4] Harris Z.S. Distributional Structure. Word. 1998, vol. 10, № 2–3, p. 146–162.

[5] Landauer T.K., Dumais S.T. A Solution to Plato's Problem: The Latent Semantic Analysis Theory of Acquisition, Induction, and Representation of Knowledge. Psychological Review. 1997, vol. 104, № 2, p. 211–240.

[6] Mikolov T., Yih W.T., Zweig G. Linguistic Regularities in Continuous Space Word Representations. Proceedings of the 2013 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies. Atlanta, Association for Computational Linguistics, 2013, p. 746–751.

Kalit so'zlar: *Matnazar Abdulhakim, ekologiya, tabiat, poetik talqin, lirik qahramon, inson va tabiat, ma'naviyat, ekologik muammo, orol muammosi, ramz, o'zbek she'riyati.*

ПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ ОХРАНЫ ПРИРОДЫ И ЭКОЛОГИИ В ТВОРЧЕСТВЕ МАТНАЗАРА АБДУЛХАКИМА

Аннотация. *В статье анализируется художественная интерпретация, взаимоотношений природы и человека в поэзии Матназар Абдулхакима. Рассматриваются философско- поэтические основы экологических проблем и ответственности за сохранение окружающей среды. В исследовании через художественные средства и символические образы раскрываются духовно – нравственные пути решения экологического кризиса.*

Ключевые слова: *Матназар Абдулхаким, экология, природа, поэтическая интерпретация, лирический герой, человек и природа, духовность, экологическая проблема, символ, узбекская поэзия.*

POETIC INTERPRETATION OF NATURE CONSERVATION AND ECOLOGY PROBLEMS IN THE WORK OF MATNAZAR ABDULHAKIM

Annotation. *The article analyzes the artistic interpretation of the relationship between nature and humanity in the poetry of Matnazar Abdulhakim. It explores the philosophical and poetic foundations of environmental issues, the preservation of nature, and ecological responsibility. The research highlights the spiritual and ethical solutions to the ecological crisis through artistic techniques and symbolic imagery in the poet's works.*

Keys words: *Matnazar Abdulhakim, ecology, nature, poetic interpretation, lyrical hero, man and nature, spirituality, ecological problem, island problem, symbol, uzbek poetry.*

Kirish. Adabiyotshunoslikda badiiy asar bahosini belgilovchi bir qancha tamoyillar, nazariyalar, mezonlar mavjud bo'lsa-da, hech shubhasiz, ularning umrboqiyligini mavzu va g'oyasi hal etadi. Darhaqiqat, dunyoning turli xalqlariga mansub mashhur yozuvchi va shoirlarning ijodiga nazar tashlansa, ko'pincha ular asarlaridagi mavzular insoniyatga daxldor global muammolarga bag'ishlanganligi bilan e'tiborni tortadi. Ammo teranroq tahlillar mazkur asarlardagi ushbu jihatdan qamrovdorlik, avvalo, ijodkor subyekti, oilasi va millati, umuman, vatanidan boshlanganligini ko'rsatadi. Zero, "Barkamol va sog'lom qalbda Vatan taqdiri mumtoz o'rinni ishg'ol etadi, har qanday olijanob shaxs vatan bilan qon-qarindoshligini u bilan o'zi orasidagi muqaddas bog'lanishni teran anglaydi" [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hazrat Navoiy asarlaridagi buyuk gumanizmning o'z davrida Xuroson taxtidagi temuriy shohlarni insof-u adolatga chaqirish yetakchi g'oyaviy mazmun bo'lganligi, Bobur she'riyatidagi vatanga muhabbat, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar ijodidagi hukmron tabaqaga bo'lgan hajvning, avvalo, ularning o'zi va oilasi, vatandoshlari tirikchiligi, turmush tarzidagi mashaqqatlar bilan aloqador ekanligi adabiyot ahliga ma'lumdir. Yoki Xorazm vohasida yashab kamol topgan Munis, Ogahiy kabi shoirlar ijodida mazkur qurg'oq o'lka aholisining suv bilan bog'liq asriy orzulari bo'y ko'rsatib turadi. El orasida yuksak obro'-e'tiborga sazovor bo'lganliklari uchun bosh mirob etib tayinlanib, hayotlarining katta qismini Xiva xonligidagi sug'orish ishlariga bosh-qosh bo'lib o'tkazganligidan ham ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Munisning Xorazmning sug'orish ishlariga bag'ishlab "Ornalar" nomli asar yozganligi, Ogahiy qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol", "Riyoz ud-davla", "Gulshani davlat", "Shohidi iqbol" asarlarida ham suv inshootlari ochish va cho'llarda quduqlar yaratish haqida qaydlarning uchrashi[2] ham bundan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur shoirlarning ayrim she'rlarida o'tmishdagi dengiz va daryolar (Jayhun), umuman, suv timsoli bilan bog'liq esda qolarli poetik tasvirlar ham yaratilgan.

Xorazm xalqining munosib farzandi, serqirra iste'dod sohibi Matnazar Abdulhakim ijodida ham ushbu voha bilan bog'liq ko'pgina muammolarning mavzu bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Zero, 1948-yilda Xorazmning Urganch tumani "Qorovul" qishlog'ida tavallud topib, bir umr ushbu viloyatda faoliyat yuritganligi ham shoirning o'z tug'ilib o'zgan maskaniga nechog'liq mehr qo'yganidan dalolat beradi. Shuningdek, shoir tarjima uchun ham asosan xorazmlik buyuk ajdodlari asarlarini tanlaydi. Uning keng ko'lamli tarjimonlik faoliyatida Shayx Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Shermuhammad Munis, Ogahiy, Ahmad Tabibiylarning fors-tojik tildagi asarlaridan tarjimalar alohida o'rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shoirning qizg'in ijod pallalarida O'zbekiston, xususan, Xorazm vohasi tabiati va ekologiyasiga bog'liq muammolar tobora fojiali tus olmoqda edi. Shu bois uning ijodida, ayniqsa, Orol dengizi bilan bog'liq mummolarning dardli aks-sado berganligini ko'rishimiz mumkin. Zero, manbaviy dalillarga asoslanadigan bo'lsak, dengizning quriy boshlashi XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladiki, Matnazar Abdulhakim hayot solnomasi bilan solishtirilsa, bu yillar shoirning yigitlik ayyomi, ayni ijodiy shakllanish yillaridar. Shoirning "Orol qo'shig'i" [3], "Tovon"[4], "O'zgarish"[5], "Xorazmni qazsangiz agar" [6], "Daryo" [7] kabi she'rlari, shuningdek, shoir ijodida salmoqli o'rin tutgan "Ko'prik" [8] dostoni

Orol dengizi va suv muammolariga qaratilgan bo‘lib, ushbu mavzu shoir qalbidagi Vatan bilan bog‘liq og‘riqli nuqtalarga borib tutashganligi sabab o‘ta ta’sirchan. Shoirning bu kabi she’rlarini o‘qiganimizda o‘z davrida azim dengizni qutqarish uchun jon kuydirgan ko‘pgina mutaxassis olimlarning mulohazalariga hamohang meditatsiyalarga guvoh bo‘lamiz. Masalan, shoirning “Orol qo‘shig‘i” she’rida Orolni ona, Amudaryoni bola obrazida jonlantiradi va o‘zining quyidagi xavotirli kechinmalarini nazmga soladi:

Tog‘lar boshida eridi ko‘p qor, bolam,
Qatrangga biroq bo‘ldim hanuz zor, bolam.

Gar to‘lmasa bag‘ring, ko‘p uyat osmonlik,
Yo‘lingda ko‘zim telba va shunqor bolam...

Baxtdan umid, jondan umidim sensan,
Sen sira yo‘q bo‘lma, mening bor bolam!

Darhaqiqat, Oroldek ulug‘vor bir dengizning suvi keskin kamaya boshlagach, uning keyingi taqdiri va buning oqibatida kelib chiqadigan muammolar haqida turli soha mutaxassislari bosh qotirdilar. Ularning aksariyati Amudaryoning ham qurib qolishidan tashvishga tusha boshladilar. Shoir o‘z davrining barcha ziyoli kishilari kabi Orol fojiasiga siyosiy tuzumning aybdor ekanligini teran anglaydi hamda ijtimoiy, hajviy, meditativ kabi lirika turlari orqali ularga nisbatan o‘zining norozilik kayfiyatlari va mulohazalarini bildiradi. Jumladan, shoirning “Tovon” she’ri ushbu mavzuda bo‘lib, hajviy lirika namunasi hisoblanadi. Olti banddan iborat bo‘lgan mazkur she’rda shoir kinoyaviylik asosida asl mazmunni yashirin berishga harakat qilsa-da, ayrim o‘rinlarda tabiatni halok qilayotgan, ammo uning tanazzulini ko‘ra bila turib, hanuz ehtiyot choralarini ko‘rishga shoshilmayotganlarga nisbatan ochiq ta’na-dashnom etishdan, ularni fosh qilishdan o‘zini tiya olmaydi. Shu bois she’rning birinchi bandida Eron tomonlarda yolg‘on gapirib qo‘ygan odamning o‘z og‘zini uch marta chayib halol etib olishi haqidagi odatni mutoyiba yo‘sinida hikoya qilish bilan boshlangan voqebandlik ikkinchi banddayoq o‘zga ohangga, g‘azab, malomat, ayblov ohanglariga evriladi:

Bizda ne ko‘p? Ko‘p yolg‘on va’da,
Bizda ne mo‘l? Fasod – qo‘lansa...
Insofdanmi yolg‘onga badal
Obihayot bilan to‘lansa.

Darhaqiqat, shoir ushbu og‘riqli mavzuda xotirjam yoza olmasdi. Negaki, aniq faktlarga asoslanib aytiladigan bo‘lsa, Orolbo‘yi mintaqalari xususan, Xorazm viloyati yaqin o‘tmishda, o‘ta tashvishli ekologik muammolar ostida qolgan edi.

Tahlil va natijalar. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Orolbo‘yi hududlarida yashovchi aholi orasida turli xavfli kasalliklar, jumladan, o‘t xaltada tosh paydo bo‘lishi, surunkali gastrit, buyrak kasalliklari va qizilo‘ngach raki nihoyatda avj olib, epidimologik vaziyatlar yuzaga kelgan edi.

Bundan tashqari, suvi kamaygan Amudaryoning quyi qismidagi nabotot va hayvonot dunyosi ham talafotga duchor bo‘ldi. Ayrim o‘simlik va hayvonlar keskin kamayib, umuman, yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoldi hamda ko‘rilayotgan tezkor ehtiyot choralar ham samara bermay qo‘ydi. Hamda ushbu muammoning qamrovi yildan yilga tobora keng tus olganligi turli manbalardagi ma’lumotlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, “Noyob va kamayib borayotgan hayvon va o‘simlik turlarini saqlash maqsadida 2006-yilda nashr etilgan Qizil kitobga o‘simliklarning 305 turi (1983-yilda 163 turni, 2003-yilgi nashrda 301 tur) va hayvonlarning 184 turi (1984-yil 63 tur, 2003-yilgi nashrda 184 tur) kiritilgan”, deya statistik ma’lumot beriladi internet sahifalarning birida [9].

Mavzuga qaytadigan bo‘lsak, Matnazar Abdulhakim ijodidagi Orol fojiasi bilan uzviy aloqador yana bir global mavzu–bu o‘simliklar va jonivorlarni asrash, insonlarni ular hayotiga shafqat bilan munosabatda bo‘lishga chaqirish hisoblanadi. Shoirning turli to‘plamlariga kiritilgan “Gujumlar qo‘shig‘i”, “Safar taassurotlari”, “Turnalar haqida ballada”, “O‘spirinligim afsonasi”; “Bog‘ haqida ballada”, “Bir vaqtlar Xorazm to‘qaylarida”, “So‘nggi qoplon o‘ldi qo‘riqxonada” kabi bir qancha she’rlari ushbu turkumdadir.

Mazkur she’rlar bilan tanishar ekanmiz, ularda ijodkor mahoratini belgilovchi turli noyob tashbehlar-sifatlashlar, ifoda usullarini ilg‘ashdan ham avvalroq shoirni ushbu mavzuda qalam tebratishga undagan qalb faryodi, vijdon amrini tinglagandek bo‘lamiz. Shoir qudratli tabiatning ojiz vakillari bo‘lgan turli o‘simliklar va jonzodlar haqida qayg‘urar ekan, ushbu dardkashlik ifodasi uchun ta’sirchan badiiy lavhalar keltiradi. Bu kabi she’rlarda, ayniqsa, personifikatsiya, voqeabandlik hamda kinoyaviylik ustuvor badiiy xususiyatlar hisoblanadi. Masalan, shoirning “Gujumlar qo‘shig‘i” she’ri ijroviy lirika mahsuli hisoblanib,

unda lirik qahramon gujum(qayrag‘och) daraxtidir. Ya’ni u tilga kiradi hamda insonlar kabi o‘z dardini so‘zlaydi. She’r hayotiy voqelik asosida yuzaga kelgan bo‘lib, unda *“Xorazmda gujumlarni shahar mo‘ylovdorlari deb atalgan zararkunandalar g‘ijib bitirmoqda”* epigrafining keltirilishidan bilishimiz mumkin. Aslida, manbasi ko‘rsatilmagan ushbu jumlani shoirning izohi desak, to‘g‘riroqdir. She’rni o‘qir ekanmiz, uning aniq ijtimoiy maqsad asosida yuzaga kelganligini, shu bois unda birmuncha publitsistik tashviqiylik ham ustuvor bo‘lganligini ilg‘aymiz:

Qutqaring! Kuylamang shunchaki maqtab,
Yo‘qsa biz ko‘rk emas, boltalar sopi.
Dahshatga soladi bizni biz haqda
Beozor qo‘shiqlar azobi.

Shuningdek shoirning “Safar taassurotlari”, “Turnalar haqida ballada” kabi she’rlari lirik qahramonning da’vatkor didaktik chaqiriqlari bilan yakunlanadi. Umuman olganda, shoirning 70–80-yillarda yaratilgan tabiat bilan bog‘liq global muammolarga bag‘ishlangan she’rlarida tashviqiylik, chaqiriq va da’vat ohanglari ustuvor bo‘lib, bu davrlarda shoirning o‘z she’rlari orqali jamiyatni uyg‘ota olishga, mavjud muammolarni hal eta olishga ishonganligini taxmin etish mumkin.

Ammo shoirning turli she’rlarida lirik qahramon dinamik ravishda o‘zgarib boradi, ayrim she’rlarda uning ona diyor tabiatining muqarrar fojiasi qarshisida chorasiz qolib, umidsizlikka berilganligining ham guvohi bo‘lamiz. Hatto shoirning bu turkumdagi she’rlari birma-bir tahlil etilganda uning individual uslubi evolyutsiyasi namoyon bo‘ladi. Olaylik, shoir ijodining dastlabki pallalarda mavzuni allegorik va publitsistik usullari orqali birmuncha ehtiros bilan yoritgan bo‘lsa, keyinchalik, ularda lirik mahzunlik, falsafiylik, kinoyaviylik sifatlari ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Albatta, Matnazar Abdulhakim ijodi ko‘p qirrali va mavzu jihatdan ham rang-barangdir. Ammo Orol va u bilan bog‘liq muammolar umri mobaynida shoirning ijodidagi bosh mavzulardan bo‘lib qoldi. Shu bois, keyinchalik, uning ijodida ona yurti tabiati qismatidagi fojiaviylikning ijod namunalariga bosh mavzu bo‘lib kelmasa-da, poetik vositalarda ham mujassamlanganini ko‘rishimiz mumkin. Olaylik, shoir muhabbat mavzusida g‘azal nazm etar ekan, tushidagi nekbin onlarni quyidagicha tasvirlaydi:

Tush ko‘rarman gohida, Jayhunman-u, ko‘pmish suvim,
Talpinarmishman sango – ikki qirog‘im yam-yashil. [Javzo tashrifi, 192-bet]

Shoirning yana bir she’rida yorning oshiq ostonasiga kelmay qo‘yilishi tasviri xuddi daryoning dengizga quyilmay qo‘yganiga, shubha yo‘qki, Amuning Orolga quyilmay qo‘yganiga mengzaladi:

Yuragimda ochdi ming-ming yaro ko‘z,
Ko‘zlaringdek yo‘qdir ko‘zlar aro ko‘z,
Ostonamdan oyoq uzding, qaro ko‘z,
Dengizlarga daryolar kelmay qo‘ydi. [Javzo tashrifi, 240-bet]

Xulosa qilib aytganda, shoir yurti sarhadlarida yuz berayotgan tabiiy fojialarni hamisha o‘z dardi deb bildi, bu esa uning rango-rang ijodida hamisha ustuvor jihat sifatida namoyon bo‘lib turadi. Matnazar Abdulhakim ijodida orol fojiasi shunchaki mintaqaviy ekologik muammo emas, global ma’naviy inqiroz ramzi sifatida talqin etiladi. Shu bois shoir ijod yo‘nalishini, individual uslubidagi o‘ziga xosliklarni belgilovchi asarlaridan biri, “Ko‘prik” dostoni uchun ham Xorazm vohasidagi suv bilan bog‘liq muammolar asosiy mavzu etib olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Белинский В.Г. Адабий орзулар. Тошкент, 1977, 98-бет.

(2). Муҳаммадризо Огаҳий. Асарлар. V жилд, Тарихий асарлардан парчалар. Т., Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978, 214-бет.

(3). Матназар Абдулҳаким. Жавзо ташрифи. Т., “Шарқ”, 2008, 336-бет.

(4). Матназар Абдулҳаким. Кўприк. Т., “Янги аср авлоди”, 2009, 144-бет.

(5). Матназар Абдулҳаким, Фасллар қўшиғи. Т., Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986, 60-бет.

(6). https://geografiya.uz/ekologiya/120-orolboyi-mintaqasining-ekologik-muammolari.html. 11-04-2015